



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



### O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA DAVLAT BOSHQARUVI TERMINLARINING O'RGANILISHI

**Gulmira Ergasheva Baxrom qizi**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti*

*E-pochta: [gulmiraergasheva127@gmail.com](mailto:gulmiraergasheva127@gmail.com)*

**ORCID ID: 0009-0002-7510-4915**

**Abstrakt.** *Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tillarida davlat boshqaruvi terminlarining o'rganilishi haqida yoritib berilgan. Shuningdek, avlat boshqaruvi terminologiyasi to'g'risida tasavvur hosil qilish imkonini beruvchi tamoyillar haqida ham aytib o'tilgan. Eng ahamiyatlisi shuki, davlat boshqaruvi tizimi ijtimoiy taraqqiyotning muhim shartlaridan biri hisoblanib, jamiyat tamadduni singari uzoq tarixga ega ekanligiga ham urg'u berib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** *termin, so'z, terminologiya, til, leksika, davlat, boshqaruv, qonun, hujjat, tushuncha*

### STUDY OF STATE ADMINISTRATION TERMS IN UZBEKISTAN AND ENGLISH

**Gulmira Ergasheva Bakhrom qizi**

*PhD student at the Tashkent State University of  
Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi*

*E-mail: [gulmiraergasheva127@gmail.com](mailto:gulmiraergasheva127@gmail.com)*

**ORCID ID: 0009-0002-7510-4915**

**Abstract.** *This article discusses the study of public administration terminology in Uzbek and English. It also discusses the principles that allow us to form an idea of the terminology of public administration. Most importantly, it is emphasized that the public administration system is considered one of the important conditions for social development and has a long history, like the civilization of society..*

**Keywords:** *term, word, terminology, language, lexicon, state, administration, law, document, concept*

*Termin lotincha «terminus» so'zidan olingan bo'lib, chegara, chegara belgisi, chek ma'nolarini anglatadi. V.N.Shevchuk terminga quyidagicha ta'rifni beradi: «Termin – bu so'z bo'lib, o'rta asrlarda «aniqlash», «ifodalash» degan ma'nolarni bildirgan, qadimiy*

---

15Крысин Л.П. Толковый словарь иноязычных слов. –М., 1998. –503 с.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



fransuz tilida mavjud bo'lgan «terme» leksemasi «so'z» degan ma'noni ifodalagan»<sup>16</sup>. A.A.Reformatskiy ta'rificha, termin so'z hisoblanib, ular o'zining alohida va maxsus belgilari bilan chegaralanadi, terminlar fan, texnika, iqtisod, siyosat va diplomatiya sohalaridagi bir ma'noli, aniq so'zlardir<sup>17</sup>. V.P. Danilenko «termin» so'ziga o'zgacha yondashadi: «Terminlar - lug'at tarkibining bir qismi hisoblanib, fan va sohalar predmetining aniqlovchisidir»<sup>18</sup>. O'zbek tilshunoslarining fikricha, terminga quyidagicha ta'rif berish mumkin: «Fan, texnika va boshqa sohaga oid narsa haqidagi tushunchani aniq ifodalaydigan, ishlatilish doirasi shu sohalar bilan chegaralangan so'z yoki so'z birikmasi *termin* deb ataladi. Terminlar bir ma'noli bo'lishi, ekspressivlik va emotsionallikka ega bo'lmasligi kabi belgilari bilan ham umumiste'moldagi so'zlardan farqlanadi. Masalan, lingvistik terminlar: *gap, ega, ot, son, tovush*; geometriyaga oid terminlar: *aylana, uchburchak*; fizikaga oid terminlar: *jism, bosim, harakat, maydon*; kimyoga oid terminlar: *suv, kumush, ishqor, tuzlar* va boshqalar<sup>19</sup>.

Terminologiya - bu maxsus tushunchalar va ularning lingvistik belgilari yoki atamalarini o'rganadigan fan. Bular maxsus bilim birliklari kognitiv jarayonlarning rivojlanishi va maxsus til hamjamiyatining mutaxassislari o'rtasidagi muloqot natijasidir (Sager 1997, 25). Terminologiya ishi domenga xos bilim tuzilmalarining tavsifiga va ularning turli kommunikativ kontekstlarda qanday uzatilishiga qaratilgan. Bu, shuningdek, atama asoslari, lug'atlar va lug'atlar kabi atamalarning ma'nosi va qo'llanilishini tashkil etish va qayd etishni o'z ichiga oladi, ular matnni dekodlash va matn yaratish uchun ishlatilishi mumkin. (Sager, Juan. 1997. "Term Formation." In Handbook of Terminology Management, edited by S. E. Wright and G. Budin, 25–41. Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins.)

Tilshunoslikda sohaviy terminologiyaga oid bir qancha tadqiqotlar olib borilgan. Y.Belchikov, I.Protchenko, A.Buryachok, P.Milshin, N.Leyberova, I.Tkacheva<sup>20</sup> kabi tilshunoslar semantik-mavzuiy jihatdan ijtimoiy-siyosiy qatlamga doir so'zlarni nominativlik asosida o'rganish jrayonida davlat boshqaruviga oid leksikaga alohida to'xtalib o'tadi. Davlat boshqaruviga oid leksik birliklarni mazmuniga ko'ra bir necha mavzuiy guruhga ajratib tahlil qiladilar.

16Шевчук В.Н. Производные военные термины в английском языке.–М., 1983. – 6 с.

17Реформатский А.А. Термин как член лексической системы языка // Проблемы структурной лингвистики.– М., 1968. –110 с.

18Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания.–М., 1977. –15 с.

19Йўлдошев И., Мухамедова С., Шарипова Ў., Мажидова Р. Тилшунослик асослари. –Т.: 2013. 183–6

20 Бельчиков Ю.А. Общественно-политическая лексика В.Г.Белинского. – М., 1962; Мильшин П.К. Обогащение общесвенно-политической лексики русского литературного языка в советскую эпоху: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ростов н/Д., 1964.; Бурячок А.А. Формирование общего фонда социально-политической лексики восточнославянских языков. Автореф. дисс. ... д-ра. филол. наук. – Киев, 1984; Лейберова Н.М. Терминология государственного устройсва в современном русском языке.Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Л., 1984.; Ткачева И.О. Политическая лексика в современном русском языке: семантические асобинности и проблемы лексикографического представления. Дисс. ... канд. филол. наук. – Санк-Петербург, 2008.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



“A.To‘raxojayeva mustaqillik davridagi ijtimoiy-siyosiy leksikaning taraqqiyotini tadqiq etishda mavzu jihatdan 1.Davlat boshqaruviga oid leksemalar; 2. Ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni ifodalovchi leksemalar; 3. Ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni ifodalovchi leksemalar; 4. Ijtimoiy tabaqalanishga doir leksemalar. 5.Davlat hujjatlarini ifodalovchi leksemalar; 6. Diplomatiyaga oid leksemalar shaklida guruhlashtiradi”<sup>21</sup>.

N.Sadinova o‘zbek tili ish yuritish terminologiyasini tadqiq etishda shakllanish manbalariga alohida e‘tibor qaratib, ichki va tashqi manbalarga tasniflaydi<sup>22</sup>. Shuningdek, terminlarning yasashida semantik usul ish yuritish sohasiga xos emasligini, asosan, affiksatsiya va sentaktik usullar yetakchilik qilishini izohlaydi. Ijtimoiy-siyosiy terminlardan farqli holatda ish yuritish terminologiyasida -ma so‘z yasovchi qo‘shimchasi ot va sifat yasovchi mahsuldor birlik ekanligi ta’kidlangan<sup>23</sup>.

“**Davlat boshqaruvi** – mamlakatda joriy etilgan an‘analarga ko‘ra amalga oshirilgan muayyan jarayonlar davomida siyosiy taraqqiyotning belgilanadigan kursiga mos ravishda mutasaddi davlat organlari va ularning rasmiy vakillari hisoblanuvchi mansabdor shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan aniq chora-tadbirlarning amaliy faoliyati... Shuningdek, davlatning markazlashuvi, hokimiyat vakolatlarining markazdan mahalliy boshqaruv tizimlariga o‘tkazilishi, sud, qonunlar tizimining faoliyati, mamlakat harbiy kuchlari tizimining tashkillashtirilishi va boshqarilishi”<sup>24</sup>.

Nemis mutafakkiri Maks Veber o‘z qarashlarida davlat boshqaruvining ustuvor, muhim xususiyatlarini belgilab bergan. Biz shu naqtayi nazarga tayanib, davlat boshqaruvi terminlarining qamrovini belgilash va boshqa sohalardan chegaralash maqsadida quyidagi tamoyillarni ishlab chiqdik:

- 1) davlat boshqaruvi terminlari ijtimoiy munosabatlarni tashkillashtirish va boshqarish borasida qonuniy huquq sohibi bo‘lgan davlat hokimiyatiga doir tushunchalarni ifoda etishi lozim;
- 2) jamiyat a‘zolari uchun bir xil yuridik kuchga ega bo‘lgan barcha qonunlar tizimida mavjud terminlar jamlanadi;
- 3) alohida individlarga maxsus vakolat (huquq) beriladigan spetsifik sohalarga doir terminlar kiritiladi;
- 4) ijtimoiy guruhlar faoliyatining muvofiqlashtirilishiga mansub terminlar va ijtimoiy guruhlar faoliyatining muvofiqlashtirilishi uchun qo‘llaniladigan iqtisodiyotga doir terminlar to‘planadi;

---

21 Tўрахожаева А.Х. Мустақиллик шароитида ўзбек тили ижтимоий-сиёий лексикасининг тараққиёти. Филол. фан. номз. ... дисс. – Т., 2012. –Б. 139.

22 Садинова Н.У. Ўзбек тили иш юритиш терминологияси. Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. –Т.: 2020. – Б. 39–46.

23 Садинова Н.У. Ўзбек тили иш юритиш терминологияси. Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Т.: 2020. – Б. 54–56.

24 Абдуллаев Ш., Хамидов И. Ривожланган давлатларда давлат бoшқаруви: тарихий тажриба ҳозирги ҳолат ва ривожланиш тенденциялари. – Т.: Турон замин зиё, 2016. – Б. 8.



- 5) davlat boshqaruvi sohasida an'analar izchilligining ta'minlanishiga sabab bo'lgan alohida qoida va rasmiy hujjatlarga nisbatan ishlatiladigan terminlar qamrab olinadi;
- 6) davlat boshqaruvi vakolatiga ega bo'lgan alohida tashkilotlarni ifodalovchi terminlar kiritiladi;
- 7) Terminlarni yig'ishda davlat boshqaruvida o'ziga xos faoliyat texnologiyalarining rivojlantirilishiga ham asoslaniladi<sup>25</sup>.

#### **Adabiyotlar:**

1. Крысин Л.П. Толковый словарь иноязычных слов. –М., 1998. –503 с.
2. Шевчук В.Н. Производные военные термины в английском языке.–М., 1983. – 6 с.
3. Реформатский А.А. Термин как член лексической системы языка // Проблемы структурной лингвистики.– М., 1968. –110 с.
4. Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания.–М., 1977. –15 с.
5. Йўлдошев И., Муҳамедова С., Шарипова Ў., Мажидова Р. Тилшунослик асослари. –Т.: 2013. 183–б
6. Бельчиков Ю.А. Общественно-политическая лексика В.Г.Белинского. – М., 1962;
7. Тўрахожаева А.Х. Мустақиллик шароитида ўзбек тили ижтимоий-сиёий лексикасининг тараққиёти. Филол. фан. номз. ... дисс. – Т., 2012. –Б. 139.
8. Садинова Н.У. Ўзбек тили иш юриштиш терминологияси. Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. –Т.: 2020. – Б. 39–46.
9. Садинова Н.У. Ўзбек тили иш юриштиш терминологияси. Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Т.: 2020. – Б. 54–56.
10. Абдуллаев Ш., Хамидов И. Ривожланган давлатларда давлат бошқаруви: тарихий тажриба ҳозирги ҳолат ва ривожланиш тенденциялари. – Т.: Турон замин зиё, 2016. – Б. 8.
11. Абдуллаев Ш., Хамидов И. Ривожланган давлатларда давлат бошқаруви: тарихий тажриба ҳозирги ҳолат ва ривожланиш тенденциялари. – Т.: Турон замин зиё, 2016. – Б. 8.

---

<sup>25</sup>Абдуллаев Ш., Хамидов И. Ривожланган давлатларда давлат бошқаруви: тарихий тажриба ҳозирги ҳолат ва ривожланиш тенденциялари. – Т.: Турон замин зиё, 2016. – Б. 8.